

Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning oldini olish va nazorat qilish loyihasi

Bu O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) kelishuvi asosida boshlangan 5 yillik loyihadir.

Бу Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги ва Япония халқаро ҳамкорлик агентлиги (ЖИСА) келишуви асосида бошланган 5 йиллик лойиҳадир.



Loyiha nomi	Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning oldini olish va nazorat qilish loyihasi
Лойиҳа номи	Юқумли бўлмаган касалликларнинг олдини олиш ва назорат қилиш лойиҳаси
Mo'ljaladagi viloyatlar va guruhlar	Navoiy va Toshkent viloyatlaridagi birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatadigan T/ShTB sog'liqni saqlash muassasalari. (OShP, OP, KTMPning brigadalari)
Мўлжаладаги вилоятлар ва гуруҳлар	Навоий ва Тошкент вилоятларидаги бирламчи тиббий-санитария ёрдами кўрсатадиган Т/ШТБ соғлиқни сақлаш муассасалари. (ОШП, ОП, КТМПнинг бригадалари)
Loyiha maqsadi	Mo'ljaldagi hududlarda birlamchi tibbiy yordam muassasalarida yuqumli bo'lmagan kasalliklarning oldini olish va nazorat qilish salohiyatini kuchaytirish.
Лойиҳа мақсади	Мўлжалдаги ҳудудларда бирламчи тиббий ёрдам муассасаларида юқумли бўлмаган касалликларнинг олдини олиш ва назорат қилиш салоҳиятини кучайтириш.
Kutilayotgan natijalar	1. Talab bo'yicha trening tizimini kuchaytirish 2. Birlamchi tibbiy yordam darajasida YBKning oldini olish va nazorat qilish bilan bog'liq tegishli tibbiyot xizmatlarini takomillashtirish 3. Mo'ljaldagi hududlarda sog'liqni saqlash sohasining boshqaruv salohiyatini mustahkamlash 4. Loyihada olingan bilim va tajriba almashinuvi
Кутилаётган натижалар	1. Талаб бўйича тренинг тизимини кучайтириш 2. Бирламчи тиббий ёрдам даражасида ЮБКнинг олдини олиш ва назорат қилиш билан боғлиқ тегишли тиббиёт хизматларини такомиллаштириш 3. Мўлжалдаги ҳудудларда соғлиқни сақлаш соҳасининг бошқарув салоҳиятини мустаҳкамлаш 4. Лойиҳада олинган билим ва тажриба алмашинуви
Loyiha davri	Besh yil (2021 yil fevraldan 2026 fevralgach)
Лойиҳа даври	Беш йил (2021 йил февралдан 2026 февралгача)

EIYO faoliyati


EIYO:ЭЙЁ

33ta TTB/ShTBlarda hamshiralar yosh bolalardan keksalargacha bo'lgan barchaga sodda va tushunarli bo'lgan o'quv materiallaridan foydalangan holda samarali oziqlanish bo'yicha ta'lim berib kelmoqdalar. EIYO faoliyati tamoyillari avvalambor oziq-ovqat tarkibidagi asosiy ozuqaviy moddalar bilan tanishish va ularni tanadagi vazifasini tushunishdir. Shuningdek, bizning loyihamiz ozuqaviy moddalarining yetishmasligi yoki ortiqchaligi tufayli yuzaga keladigan salomatlik muammolari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga ahamiyat beradi. Umid qilamizki, bu insonlarni sog'ligi uchun muvozanatlashgan oziqlanish haqida o'ylashga majbur qiladi.

Loyiha tomonidan ishlab chiqilgan o'quv materiallarida asosiy ozuqaviy moddalar tanadagi vazifasiga ko'ra uch guruhga bo'linadi va har bir guruh O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'ining uchta rangidan foydalangan holda ifodalanadi. Oziq-ovqat tarkibida ko'p turdagi ozuqaviy moddalar mavjud, ammo agar ular orasida asosiy oziq moddalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, oziq-ovqatlarni ham ushbu uch guruhga bo'lish mumkin.

Tanani energiya bilan ta'minlaydigan oziq-ovqat guruhiga hayot manbai, ya'ni osmon va suv ramzi bo'lgan moviy rangdan; tananing holatini yaxshilovchi oziq-ovqat guruhiga tinchlik va baxtning ramzi bo'lgan oq rangdan; tanani hosil qiluvchi oziq-ovqat guruhiga esa yangi hayot va mo'l hosilning ramzi bo'lgan yashil rangdan foydalanildi. Bayroqning 3ta rangi ham bir xil ahamiyatga ega. Xuddi shunday, barcha oziq-ovqat guruhlari ham muhim va zarurdir.

Oziqlanish faoliyati birlamchi tibbiy muassalarda, jumladan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim maktablarida keng tar'gib qilindi.



Energiya Manbai uchun			
Un ун	Guruch Гуруч	Kartoshka Картошка	
Makaron Макарон	Makkajo'xori Маккаж хори	Banan Банан	
Shakar Шакар	Asal асал	Pista Писта	
Moy Мой	Mayonez Майонез	Mol go'shti yog'i Мол гўшти ёғи	



Tanani holatini yaxshilash uchun			
Sabzi Сабази	Ismaloq Исмалоқ	Piyoz Пийоз	Turp Турп
Bulg'or qalampir Булг'ор қаламپири	Bodring Бодринг	Karam Карам	
Pomidor Помидор	Baqlajon Бақлајон	Brokkoli Брокколи	
Limon Лимон	Qulupnay Қулупнай	Olma Олма	

Tanani hosil qilish uchun			
Mol go'shti Мол гўшти	Tovuq go'shti Товуқ гўшти		
Qo'y go'shti Қўй гўшти	Sut Сут	Tuxum Тухум	
Sazan go'shti Сазан гўшти	Ozil haliq go'shti Озил ҳалиқ гўшти	Pishloq Пишлоқ	



Hayot manbai bo'lgan osmon va suv ramzi

Ҳаёт манбаи бўлган осмон ва сув рамзи

Tinchlik va baxtning ramzi

Тинчлик ва бахтнинг рамзи

Yangi hayot va mo'l hosilning ramzi

Янги ҳаёт ва мўл ҳосилнинг рамзи

IBM faoliyati

Yuqumli bo'lmagan kasalliklar, jumladan yurak-qon tomir kasalliklari, saraton, surunkali respirator kasalliklar, qandli diabet kabilar kasallanish va o'lim holatlarining asosiy sababchisi hisoblanadi. Yuqumli bo'lmagan kasalliklar nafaqat Respublika aholisining yuqori o'lim darajasini belgilabgina qolmay, balki erta nogironlik va nogironlikning asosiy sabablari ham hisoblanadi. Shunday ekan, yuqumli bo'lmagan kasalliklar va ularning xavf omillarini oldini olish va ularga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z vaqtida, muntazam va uzluksiz amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.



Shu munosabat bilan SSV tomonidan JSSTning PEN protokoli asosida yuqumli bo'lmagan kasalliklarni oldini olish, nazorat qilish va davolash bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqilgan. Loyiha doirasida shifokorlar va hamshiralar uchun Sog'liqni saqlash vazirligi yo'riqnomasi asoslarini o'rganish uchun talab bo'yicha o'quv materiallari ishlab chiqdildi.

Ushbu kasalliklarning rivojlanish xavf omillari quyidagilarga bog'liq: tamaki iste'moli, spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilish, sabzavot va mevalarni yetarli darajada iste'mol qilmaslik, tuzni ortiqcha iste'mol qilish va harakatsiz turmush tarzi. Ushbu xavf omillari, ya'ni ortiqcha vazn va semirish, yuqori qon bosimi, qonda glyukoza va xolesterin miqdorining yuqori bo'lishi yurak-qon tomir kasalliklari, nafas olish va onkologik kasalliklarning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning oldini olish va samarali davolash uchun xavf omillarini kamaytirish, ya'ni bemorning turmush tarzini yaxshilash muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda, muhim jihat shundaki, salomatlik, kasallik va turmush tarzi - bu bemorning salomatligi, bemorning kasalligi va bemorning turmush tarzidir.

Asosiy aktyorlar bemorlar va ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha sheriklar bo'lgan tibbiyot xodimlaridir. Demak, tibbiyot xodimlaridan nafaqat tibbiy mutaxassislik, balki yaxshi muloqot ko'nikmalariga ega bo'lish ham talab qilinadi.

Loyihamizda oilaviy shifokorlar va hamshiralar uchun muloqot ko'nikmalarini oshirish bo'yicha seminarlar o'tkazildi. Shuningdek, ularga to'g'ri muloqot qilish, bemorlar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatish va bemorlarning sog'ligini yaxshilashga yordam beradigan vosita taqdim etildi.



Qadamlarimiz faoliyati



“Qadamlarimiz” T/ShTB rahbarlarini sikl boshqaruvi (rejalashtirish, amalga oshirish, monitoring va baholashdan iborat tizimli yondashuv) uslubini amaliy ravishda egallashlarini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan. “Rejalashtirish vositasi” hamda “Monitoring va baholash vositasi”dan foydalanish orqali rahbarlarning mantiqiy va samarali faoliyat rejasini tuzishlari, shuningdek, faoliyatni yanada oson va ishonchli tarzda monitoring qilish va baholash imkoniyatiga ega bo’lmoqdalar. Sikl boshqaruvi bu - faoliyatni uzluksiz takomillashtirish maqsadida “rejalashtirish, bajarish, tahlil qilish va tahlil natijalarini keyingi harakatlarda qo’llash” ketma-ketligini takrorlab boradigan boshqaruv uslubidir.

Faoliyatni amalga oshirishda qiyinchiliklar va muvaffaqiyatsizliklar muqarrardir. Muhimi – bu holatlarni yashirish va yuzaki yutuqlar bilan qoniqish emas, balki bu kabi muammolar va xatolardan saboq olib, ularni keyingi rejalashtirish bosqichida inobatga olishga tayyor bo’lgan dunyoqarash va yondashuvga ega bo’lishdir. **Boshqaruv salohiyatini kuchaytirishning yagona yo’li - bu muvaffaqiyatsizliklardan saboq olishdir.** “Qadamlarimiz” orqali aynan shu kabi yondashuv - ya’ni muvaffaqiyatsizliklarni yashirmasdan, ulardan o’rganishni ijobiy narsa deb qabul qilishga va shu tushunchani ommalashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

2025-yil yanvar oyida barcha 33 ta T/ShTBlar o’zlarining olti oylik ustuvor harakat rejasini ishlab chiqdilar va amalga oshirdilar. Ushbu faoliyatlardan olingan saboqlarga asoslangan holda, keyingi faoliyatni rejalashtirish bosqichi 2025-yil iyul oyida amalga oshirilishi rejalashtirildi.



Loyiha tomonidan yaratilgan materiallar va vositalarni quyidagi telegram akkauntlaridan yuklab olish mumkin.



<<JICA лойиҳаси ахборот алмашиш хонаси>>
<https://t.me/+sc7A6iMM5dNhNTc1>

JICA haqida qo’shimcha ma’lumot olish uchun quyidagi veb-saytga murojaat qiling:



<https://www.facebook.com/JICAUzbekistan/>
<https://www.instagram.com/jicauzbekistan/>